

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat
instituti rektori

N.B.Sayfullayev

2025-yil “30” 06



**San’atshunoslik: kino san’ati tanqidi va tahlili ta’lim yo’nalishiga ikkinchi
va undan keyingi oliy ta’limga qabul qilish imtihoni
BAHOLASH MEZONI**

Talabgorga quyidagi mavzular bo’yicha savollar beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to’plagan talabgor suhbatdan o’tgan hisoblanadi.

№	Mavzular	Maksimal ball
1.	Mamlakatda o‘zbek san’ati va san’atshunosligini rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi bo’yicha;	25
2.	San’atshunoslik (kino san’ati tanqidi va tahlili) ta’lim yo’nalishini tanlashda motivatsiya (sohaning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunishi, unga qiziqishini namoyon etishi) bo’yicha;	25
3.	San’atshunoslik (kino san’ati tanqidi va tahlili) ta’lim yo’nalishining kasbiy xususiyatlari (ilmiy izlanishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo’yicha;	25
4.	San’atshunoslik (kino san’ati tanqidi va tahlili) ta’lim yo’nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko’nikmalarning mavjudligi bo’yicha;	25
Jami		100

Berilgan savollariga talabgorning javobini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Qo’yilgan savolga talabgor tomonidan to’liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida bilimi ko’rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tushunchalar, nazariy va tarixiylikning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. Tushunchalarni	22-25

	ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda xatolar tuzatilishi mumkin.	
2.	Savolga to'liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda. Javobda aniq tuzilma hamda tushunchalar, nazariy va tarixiy jaryonlarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. Javobda suhbat komissiyasi a'zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo'lishi mumkin	18-21
3.	Berilgan savollarga to'liq va batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Fikrini bayon qilishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yilganda. Talabgor soha xususiyatlarini anglay olmaganida. Bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda.	14-17
4.	Talabgor savol mavzusi bo'yicha sezilarli xatolarga yo'l qo'yganda, bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savollarni to'liq anglamaganida. Xulosa va javoblarning isboti mavjud bo'lmaganida. Nutqi aniq va ravon bo'lmaganida. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu bo'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda.	0-13

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



S.Turatov